



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

QASHQADARYODA MAXSUS KO‘CHIRILGANLARNI JOYLASHTIRISH SIYOSATI (1944–1950)

Qulto‘rayev Islom Ro‘ziboy o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1944–1950-yillarda Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan maxsus ko‘chirilganlarni joylashtirish siyosati arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan. Qrim va Gruziya SSRdan deportatsiya qilingan aholining viloyatga joylashtirilishi, ularni uy-joy, oziq-ovqat, kredit va chorva mollari bilan ta‘minlash hamda mehnat faoliyatiga jalb etish masalalari yoritilgan. Tadqiqot sovet deportatsiya siyosatining Qashqadaryo viloyatidagi amaliy natijalarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: maxsus ko‘chiriluvchilar, deportatsiya, Qrim tatarlari, Gruziya SSR, Qashqadaryo viloyati, kolxoz, ko‘chirish siyosati.

ПОЛИТИКА РАЗМЕЩЕНИЯ СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЕВ В КАШКАДАРЬЕ (1944–1950 ГГ.)

Култураев Ислам Рузбой угли
Каршинский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В статье на основе архивных документов рассматривается политика размещения специальных переселенцев в Кашкадарьинской области в 1944–1950 годах. Освещаются вопросы расселения депортированного населения из Крыма и Грузинской ССР, его обеспечения жильём, продовольствием, кредитами и скотом, а также вовлечения в трудовую деятельность. Исследование раскрывает особенности реализации советской депортационной политики в регионе.

Ключевые слова: специальные переселенцы, депортация, крымские татары, Грузинская ССР, Кашкадарьинская область, колхоз, политика переселения.

THE POLICY OF RESETTLING SPECIAL DEPORTEES IN KASHKADARYA (1944–1950)

Qulto‘rayev Islom Ro‘ziboy o‘g‘li
Karshi State University, Doctoral Researcher

Abstract

This article examines the policy of settling special deportees in Kashkadarya region during 1944–1950 based on archival documents. It analyzes the placement of deported populations from Crimea and the Georgian SSR, their provision with housing, food, credit and livestock, as well as their involvement in labor activities. The study reveals the implementation of Soviet deportation policy in Kashkadarya region.

Keywords: special settlers, deportation, Crimean Tatars, Georgian SSR, Kashkadarya region, collective farms, resettlement policy.

Ikkinchi jahon urushi yillarida va undan keyingi davrda Sovet Ittifoqida ayrim xalqlarni ommaviy deportatsiya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 1944-yilda Qrim tatarlari, shuningdek, Gruziya SSRning ayrim hududlaridan aholi majburiy ravishda ko‘chirilib, ittifoqning turli hududlariga joylashtirildi. O‘zbekiston SSR deportatsiya qilingan aholini qabul qilgan asosiy respublikalardan biri bo‘lib, Qashqadaryo viloyati ham ushbu jarayonda muhim o‘rin tutdi. Viloyat hududiga minglab maxsus ko‘chiriluvchilar joylashtirilib, ularni yangi sharoitlarda uy-joy, ish va moddiy resurslar bilan ta‘minlash masalalari davlat organlari zimmasiga yuklatildi. Mazkur maqolaning maqsadi Qashqadaryo viloyatida 1944–1950-yillarda amalga oshirilgan maxsus ko‘chirilganlarni joylashtirish siyosatini arxiv hujjatlari asosida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot tarixiylik, xolislik va qiyosiy tahlil tamoyillari asosida olib borildi. Asosiy manba sifatida O‘zbekiston Milliy arxivining 314-fondi, 7-ro‘yxatidagi yig‘ma jildlar materiallaridan foydalanildi. Arxiv hujjatlaridagi statistik ma‘lumotlar, hukumat qarorlari, xizmat yozishmalari va hisobotlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va hujjatshunoslik usullaridan foydalanilib, maxsus ko‘chirilganlarni joylashtirish siyosatining asosiy yo‘nalishlari hamda uning natijalari o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili: Sovet deportatsiya siyosati masalasi mustaqillik yillarida o‘zbekistonlik va

xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganildi. Xususan, N.F. Bugay, P.M. Polyani, A.M. Nekrich kabi olimlar SSSRdagi majburiy migratsiya va deportatsiyalar tarixini tahlil qilganlar. O'zbekistonda esa R. Shamsutdinov, D. Alimova, A. Ergashev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan urush yillaridagi demografik jarayonlar hamda deportatsiya qilingan aholining respublika hududlariga joylashtirilishi masalalari yoritilgan. Biroq Qashqadaryo viloyatida maxsus ko'chirilganlarni joylashtirish siyosati alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqola ushbu bo'shliqni arxiv manbalari asosida to'ldirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

1944-yilda Qrimdan deportatsiya qilingan maxsus ko'chiriluvchilarni O'zbekiston SSR hududlariga joylashtirish sovet hukumatining markazlashgan siyosati asosida amalga oshirildi. 1945-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Qrimdan jami 37 235 ta oila (147 170 nafar kishi) O'zbekistonning yetti viloyatidagi 62 ta tumanga joylashtirilgan. Ularning 10 521 oilasi sanoat korxonalari va tashkilotlariga, 7 833 oilasi sovxozlarga, 18 881 oilasi esa kolxozlarga birlashtirilgan. Viloyatlar kesimida taqsimotda Qashqadaryo viloyati ham muhim o'rin egallab, bu yerga 2 227 ta oila yoki 9 245 nafar maxsus ko'chiriluvchi joylashtirilgan. Bu ko'rsatkich Qashqadaryoning deportatsiya qilingan aholini qabul qilgan asosiy hududlardan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Maxsus ko'chiriluvchilarni yangi yashash joylarida xo'jalik jihatidan mustahkamlash maqsadida SSSR Davlat Mudofaa Qo'mitasining 1944-yil 25-sentabrdagi 6600-rs-son qarori hamda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1944-yil 2-noyabrdagi 1333-177-ss-son qarorlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarga muvofiq ko'chirilgan aholini ot-ulov, don mahsulotlari, sabzavot, jun, paxta matolari va charm buyumlari bilan ta'minlash belgilandi. Shuningdek, maxsus ko'chiriluvchilar joylashtirilgan kolxozlarga bepul chorva mollari ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu choralar deportatsiya qilingan aholining yangi hududlarda iqtisodiy va maishiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan edi [1, 134-b.].

Mazkur siyosat doirasida maxsus ko'chiriluvchilarni oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratildi. 1944-yil oxiridan boshlab SSSR markaziy fondlari hisobidan ko'chirilgan aholi uchun 6060 tonna don mahsulotlari ajratilib, har bir kishiga oyiga 8,2 kilogrammdan berilishi belgilandi. Shuningdek, 3000 tonna kartoshka ajratish rejalashtirilgan bo'lsa-da, uni sabzavot mahsulotlari bilan almashtirish bo'yicha qabul qilingan qaror amalda to'liq bajarilmadi. O'zbekiston SSR Savdo xalq komissarligi resurslar yetishmasligini sabab qilib ko'rsatib, belgilangan hajmdagi sabzavot mahsulotlarini yetkazib bera olmadi. Ko'chirilgan oilalarning eng muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida markaziy fondlardan 109 tonna jun ajratildi. Mazkur mahsulotlar ichki ishlar organlarining maxsus komendaturalari tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar asosida, avvalo, bolalar va ehtiyojmand oilalarga tarqatildi. 1945-yil yanvar oyi o'rtalarida olingan ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida 7,2 tonna jun maxsus ko'chiriluvchilar o'rtasida taqsimlangan. Bundan tashqari, maxsus ko'chiriluvchilar ehtiyojlari uchun 50 ming metr paxta matosi, 1258 dona yirik charm mahsulotlari hamda 40 ming kubometr qurilish yog'ochi ajratilishi rejalashtirilgan edi. Biroq ayrim hollarda ta'minot rejalarining bajarilishi kechikdi. Xususan, 1945-yil 1-yanvar holatiga ko'ra qurilish yog'ochlari hali yetkazib berilmagan bo'lib, bu holat ko'chirilgan aholini uy-joy bilan ta'minlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatgan [2, 135-b.].

Maxsus ko'chirilganlarni joylashtirish siyosati faqat moddiy ta'minot bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy himoya choralarini ham qamrab oldi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti va O'zbekiston KP(b) MKning 1944-yil 30-sentabrdagi "Qrim tatarlari – maxsus ko'chiriluvchilarni mehnat va xo'jalik jihatdan joylashtirish to'g'risida"gi qarori asosida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. 1945-yil 10-yanvar holatiga ko'ra, ota-onasiz qolgan 1534 nafar maxsus ko'chiriluvchilar farzandlari bolalar uylariga joylashtirildi. Shuningdek, maxsus ko'chiriluvchilar orasida aniqlangan 3617 nafar nogironning bir qismi ish bilan ta'minlandi, ularga pensiyalar tayinlandi yoki internat hamda nogironlar uylariga joylashtirildi. Maxsus ko'chiriluvchilarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va ichki ishlar organlari ishtirokida muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazildi. Biroq markaz tomonidan ajratilgan mix, cho'yan, oyna va qurilish yog'ochlarini yetkazib berishda yuzaga kelgan uzilishlar uy-joy va maishiy infratuzilma yaratish jarayonini sekinlashtirgan [3, 136-b.].

Maxsus ko'chirilganlarni joylashtirish va ularni yangi hududlarda mustahkamlash jarayonini boshqarish maqsadida O'zbekiston SSR huzurida maxsus Ko'chirish boshqarmasi tashkil etildi. **1944-yilning noyabr-dekabr oylarida** boshqarma va uning hududiy bo'linmalari uchun shtatlar tasdiqlanib, viloyatlarda tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish ishlari boshlandi. 1945-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Toshkent, Namangan, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida Ko'chirish boshqarmasining mahalliy apparatlari qisman tashkil etilgan edi. Bu esa maxsus ko'chiriluvchilarni qabul

qilish, hisobga olish va joylashtirish jarayonlarini markazlashgan tarzda boshqarish imkonini berdi.

Deportatsiya qilingan aholini uy-joy bilan ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 4-yanvardagi qaroriga muvofiq ko'chiriluvchilarni mavjud uy-joy fondi hisobidan joylashtirish, turar joy sifatida foydalanish mumkin bo'lgan binolarni moslashtirish hamda yangi uy-joylar qurish vazifalari belgilandi. Qarorga ko'ra, kolxozlar, sovxozlar va korxonalar orqali har bir oila uchun 5000 rublgacha miqdorda uy-joy qurilishi va xo'jalik ehtiyojlari uchun kredit ajratish nazarda tutildi. 1945-yil 1-yanvar holatiga ko'ra maxsus ko'chiriluvchilar uy-joy qurilishi, ta'mirlash va xo'jalik ehtiyojlari uchun 17 million 569 ming rubl miqdorida kredit olgan bo'lsalar-da, qurilish materiallari tanqisligi, chorva mollari va xo'jalik anjomlari narxlarining yuqoriligi hamda ko'chiriluvchilarning shaxsiy mablag'lari yetishmasligi sababli ajratilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan [4, 137-b.].

Qashqadaryo viloyatiga nafaqat Qrimdan deportatsiya qilingan aholi, balki Gruziya SSRdan ko'chirilgan fuqarolar ham joylashtirildi. Davlat Mudofaa Qo'mitasining 1944-yil 31-iyuldagi 6279-ss-sonli qarori asosida Gruziya SSRdan deportatsiya qilingan aholini O'zbekiston hududlariga joylashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada Qashqadaryo viloyatining uchta tumaniga jami 640 nafar kishi joylashtirildi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti va O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasining 1944-yil dekabrda qaratilgan qarorlariga muvofiq ko'chirilgan aholini kolxozlarga joylashtirish, ularga bir oy davomida tibbiy xizmat ko'rsatish hamda temiryo'l stansiyalarida qabul qilish va doimiy yashash joylariga yetkazib berish tartibi belgilandi. Shuningdek, har bir oila uchun uy-joy qurilishi va xo'jalik ehtiyojlariga 7000 rublgacha kredit ajratish nazarda tutildi. Biroq joylashtirish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo'lsa-da, ko'chirilganlarni ish bilan ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolganligi sababli ularni tezkor ravishda kolxozlar tarkibiga qabul qilish yuzasidan ko'rsatmalar berildi [5, 138-b.].

Maxsus ko'chiriluvchilarni yangi yashash joylarida mustahkamlash maqsadida 1944-yil oxiri va 1945-yil boshlarida qo'shimcha choralar ko'rildi. Xususan, viloyat ijroiya qo'mitalariga ko'chirilgan aholiga tomorqa yer uchastkalari ajratish hamda ularni kolxoz ishlab chiqarish jarayoniga keng jalb etish vazifasi yuklatildi. Shu bilan birga, ko'chirilgan aholini qabul qilgan kolxozlarni ikki yil muddatga ayrim soliqlar va majburiy topshiriqlardan ozod qilish, ko'chiriluvchilarning kasbiy tarkibini o'rganish va ularni mutaxassisligiga mos ravishda ish bilan ta'minlash, shuningdek, sog'liqni saqlash, maorif va ijtimoiy ta'minot organlari faoliyatini kengaytirish belgilandi. Maxsus ko'chiriluvchilarni kiyim-kechak, poyabzal va boshqa zarur maishiy buyumlar bilan ta'minlash ham ushbu siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi [6, 139-b.].

Mazkur siyosatni amaliy jihatdan ta'minlash maqsadida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 31-martdagi 456/56 ss-sonli qarori asosida Qashqadaryo viloyatida Gruziya SSRdan ko'chirilgan aholini xo'jalik jihatidan mustahkamlash tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan, 130 ta ko'chirilgan oilaga 130 bosh g'unajin va 130 bosh qo'y ajratildi, kolxozlarning jamoa chorvachiligini rivojlantirish uchun qo'shimcha 4 tonna tirik vazndagi qo'y berildi. Shuningdek, topshirilgan 10 ta ot va 12 ta eshak o'rniga 5 ta ot hamda 7 ta eshak qaytarildi. Eng muhtoj oilalarga 52,5 ming rubl miqdorida yordam ajratilib, har bir oilaga 800 rubldan berildi. Bundan tashqari, ko'chirilgan aholiga 12,5 tonna oziq-ovqat doni va 28 tonna arpa bepul tarqatildi [7, 177-b.].

Ko'rilgan choralar natijasida 1946-yil 1-aprel holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida Qrimdan ko'chirilgan 6 567 nafar va Gruziyadan ko'chirilgan 608 nafar aholi istiqomat qilgan bo'lib, ularning umumiy soni 7 175 nafarni tashkil etdi. Bu respublikadagi barcha maxsus ko'chiriluvchilarning 4,3 foiziga teng edi. Qrimdan ko'chirilganlar asosan kolxozlar, sovxozlar, korxonalar va qurilish obyektlariga, Gruziyadan ko'chirilganlar esa asosan kolxozlarga joylashtirildi [8, 190-b.].

Biroq maxsus ko'chiriluvchilarni xo'jalik va mehnat faoliyatiga jalb etish jarayonida qator muammolar ham kuzatildi. Xususan, 1946-yilda Kitob tumanidagi ayrim sanoat korxonalarida ishlayotgan maxsus ko'chiriluvchilarga 3–8 oy davomida ish haqi to'lanmagan. Shuningdek, tumandagi uchta kolxozda 236 nafar maxsus ko'chiriluvchiga 1945-yilda ishlagan mehnat kunlari uchun haq berilmagan. Viloyatda ro'yxatga olingan 89 nafar nogiron maxsus ko'chiriluvchidan faqat 16 nafari pensiya bilan ta'minlangan, 6 nafari esa nogironlar uyiga joylashtirildi [9, 211-b.].

1948-yilga kelib ko'chirilgan aholi bilan bog'liq xo'jalik masalalarini tartibga solish ishlari davom ettirildi. Jumladan, Qarshi, Kasan, Beshkent, Dehqonobod, G'uzor, Kamashi, Ko'kbuloq, Chiroqchi, Yakkabog', Kitob, Miraki va Shahrisabz tumanlarida ko'chirilgan kolxozchilar bilan bog'liq hisob-kitob ishlarini yakunlash bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston KP(b) MKning 1948-yil 27-oktabrdagi qarori asosida ko'chirilgan kolxozchilar chiqib ketgan

hududlardagi kolxozlarning bo'linmas fondlari bo'yicha hisob-kitoblarni yakunlash uchun tumanlardagi buxgalteriya faollari hamda Toshkent viloyatidan kelgan joylashtirish vakillari jalb etildi [10, 94-b.].

1948-yilga kelib respublikada aholini qayta joylashtirish siyosati davom ettirildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida ko'chirilgan aholi bilan bog'liq hisob-kitob va moddiy ta'minot masalalarini hal etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1948-yil noyabr oyida Chiroqchi, Kasan, Beshkent, Qarshi, Yakkabog', G'uzor, Dehqonobod, Kamashi, Ko'kbuloq va Kitob tumanlariga tegishli arizalar rasmiylashtirilib, viloyatga 18–25 noyabr kunlari jami 285 sentner un ajratildi [11, 95-b.].

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston KP(b) MKning 1948-yil 27-oktabrdagi 2092-sonli qarori asosida Qashqadaryo viloyatidan Toshkent viloyatiga kolxoz xo'jaliklarini ko'chirish ishlari tashkil etildi. Ko'chirilayotgan aholini oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta'minlash, mahsulotlarni belgilangan me'yorlar asosida tarqatish hamda ushbu jarayon ustidan nazorat o'rnatish vazifalari yuklatildi [12, 99-b.].

Mazkur tadbirlar doirasida 1948-yilda Qashqadaryo viloyatidan Toshkent viloyatiga 3000 ta xo'jalik (15 000 kishi) ko'chirildi. Ko'chiriluvchilar uchun jami 52,8 tonna un, 9,9 tonna shakar, 980 kg choy va 4950 kg sovun ajratilib, har bir kishi uchun 3,2 kg un, 0,9 kg shakar, 65 gramm choy va 330 gramm sovun berish belgilandi [13, 100-b.]. Ko'chirish jarayonining transport ta'minoti ham oldindan rejalashtirildi. Xususan, 1948-yil 16-noyabrda G'uzor stansiyasidan Golodnaya Step stansiyasiga 150 ta xo'jalik (600 kishi)ni jo'natish uchun 75 ta yopiq vagon ajratilishi rejalashtirildi. Ularning asosiy qismi aholi, mol-mulk va chorva mollari tashishga mo'ljallangan bo'lib, tarkibga sanitariya vagoni ham kiritilgan edi [14, 269-b.].

1950-yilda Qashqadaryo viloyati ijroiya qo'mitasi huzuridagi Ko'chirish bo'limi maxsus ko'chiriluvchilar bilan bog'liq tadbirlarni moliyaviy jihatdan ta'minlashda faol ishtirok etdi. 1950-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra bo'limning Selxozbankdagi hisob raqamida 49 764 rubl 90 tiyin, kassasida esa 8 473 rubl 70 tiyin mablag' mavjud bo'lgan. Hujjatlarda ko'chirish tadbirlarini moliyalashtirish bilan bog'liq hisob-kitoblar muntazam nazorat ostida bo'lgani qayd etilgan [15, 151-b.].

Xulosa qilib aytganda, 1944–1950-yillarda Qashqadaryo viloyati sovet hokimiyatining maxsus ko'chirilganlarni joylashtirish siyosatini amalga oshirgan muhim hududlardan biri bo'ldi. Viloyatga Qrimdan deportatsiya qilingan 9 245 nafar hamda Gruziya SSRdan ko'chirilgan 640 nafar aholi joylashtirildi. Ularni yangi yashash joylarida mustahkamlash maqsadida davlat tomonidan uy-joy qurilishi uchun kreditlar ajratildi, chorva mollari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa moddiy resurslar bilan ta'minlash choralari ko'rildi. Shuningdek, ko'chirilgan aholini kolxoz va sovxozlarga birlashtirish, tomorqa yer maydonlari ajratish hamda mehnat faoliyatiga jalb etish orqali ularni mahalliy xo'jalik tizimiga integratsiya qilishga harakat qilindi. Biroq arxiv hujjatlari joylashtirish siyosatining barcha yo'nalishlari ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmaganini ko'rsatadi. Qurilish materiallari tanqisligi, ish haqlarining o'z vaqtida to'lanmasligi, mehnat kunlari uchun hisob-kitoblarning kechiktirilishi hamda nogiron va ehtiyojmand ko'chiriluvchilarni ijtimoiy himoya qilishdagi kamchiliklar ushbu siyosatning asosiy muammolari bo'lgan. Shunga qaramay, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan tadbirlar deportatsiya qilingan aholini yangi hududlarda joylashtirish va xo'jalik jihatidan mustahkamlashga qaratilgan sovet siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 134-varaq.
2. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 135-varaq.
3. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 136-varaq.
4. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 137-varaq.
5. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 138-varaq.
6. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 139-varaq.
7. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 177-varaq.
8. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 190-varaq.
9. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 211-varaq.
10. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 94-varaq.
11. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 95-varaq.
12. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 99-varaq.
13. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 100-varaq.
14. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 269-varaq.
15. O'zbekiston Milliy arxivi. 314-fond, 7-ro'yxat, 86-yig'ma jild, 151-varaq.